



ISLOM OLAMIDA XOTIN-QIZLAR SIYOMSI

ANNEMARIE SHIMMEL „JONON MENING JONIMDA“ ASARI
MISOLIDA

Eshniyozova Sevinch Jumanazar qizi,

TISU talabasi

+998900738182

sevincheshiyozova4@gmail.com

Annotasiya. Ushbu maqolada Germaniyada yetakchi olmon islomshunos olimasi Annemarie Shimmelning «Jonon mening jonimda» nomli asarining yaratilishi, uning islom dunyosidagi o'rni va ahamiyati, bundan tashqari asardagi islom olamidagi xotin-qizlar siyomosi, islomiy donishmandlikda xotin-qizlarning o'rni, islom dinida ayollarga munosabatlar haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Germaniya, Annemarie Shimmel, Yoaxim Moormann, islom dini, Payg'ambar alayhissalom, ayollar siyomosi, Qur'oni Karim, Odam Ato, xotin-qizlarning xuquqlari, islom olamida ayollarning burchlari.

1995 yilda Germaniyada yetakchi olmon islomshunos olimasi Annemarie Shimmel xonimning «Jonon mening jonimda» nomli yangi asari dunyo yuzini ko'rgandi. Endi esa kitob o'zbek tiliga o'girilganligi sharofatidan o'zbek kitobxonlari ham zahmatkash olima ijodining bir qirrasi bilan yaqindan tanishish, uning barakasidan bahramand bo'lish imkoniga ega bo'lmoxdalar.

Shimmel xonim qariyb ellik yillardan beri barcha madaniyat ixlosmandlariga Islom dini to'g'risida chuqur va har tomonlama ma'lumotlar berish ishiga o'zining zalvorli hissasini qo'shib kelmoqda. 1995 yil 15 oktyabrda xonimga Germaniya Kitob savdosi tashkilotining Tinchlik mukofoti berildi. Bu Shimmel xonimning ilmiy hayotidagi eng baland cho'qqi va uning xizmatlariga berilgan eng yuqori bahodir. Mukofot topshirilayotganda Germaniya Federativ Respublikasi Prezidenti tabrik nutqi so'zlab, Shimmel xonimni madaniyatlararo eng yaxshi muloqotni yo'lga qo'ygan fan arbobi, deb atadi. Tabrik nutqida jumladan shunday deyilgandi:



«Madaniyatlararo muloqotni yo‘lga qo‘yish uchun shu madaniyatlarni o‘zlari yaxshi bilgan holda boshqalarga ham o‘rgatadigan, boshqalarning ma’naviyati va qadriyatlarini yaxshi tushunadigan, o‘zlari to‘plagan bilimlarni boshqalarga ham ulashadigan va shu asnoda ishonch ko‘priklarini quradigan odamlar kerak. Shimmel xonim mana shunday jonkuyar kishilarimizdan biridir. Shu sababdan xonim munosib ravishda Tinchlik mukofotini olishga sazovor bo‘ldi. Shimmel xonim Islomning ruhiy olamini jon-dildan sevadi, shu sababdan ko‘plab musulmonlar ham xonimning hurmatini joyiga qo‘yadilar».

Shimmel xonimning ushbu asari o‘zbek tiliga tarjima qilinib, O‘zbekistonda nashr etilishini olmon-o‘zbek aloqalarini yanada chuqurlashtirishga qo‘shilgan navbatdagi hissa, deb baholash joiz. To‘qsoninchi yillar boshidagi siyosiy o‘zgarishlar Germaniya bilan O‘zbekiston o‘rtasidagi ilk siyosiy, xo‘jalik va madaniy aloqalarning vujudga kelishiga imkon yaratdi. Ushbu asarning o‘zbek tiliga tarjima qilinib, Toshkentda chop etilishi mamlakatlarimiz o‘rtasida sakkiz yildan beri davom etib kelayotgan aloqalarning yanada kengayishiga qo‘shilgan ulushdir.

Shu yerda men bir narsani alohida qayd etib o‘tishni istardim. Shimmel xonimning o‘zbek tiliga o‘girilgan bu kitobchasi davlatlararo bo‘lgan munosabatlarning emas, balki alohida shaxslarning faoliyatlari natijasi o‘larоq dunyo yuzini ko‘rdi. «SANAVITA» firmasining egasi, Germaniyaning «Immunitet va atrof-muhit» jamg‘armasi raisi janob doktor Yoaxim Moermann Shimmel xonimning bu asarini o‘zbek tilida chop ettirish uchun tahsinga loyiq savobli ishlarni amalgalashirdi. Asarni tarjima qilib, o‘zbek kitobxonlariga etkazish g‘oyasini esa yozuvchi va tarjimon janob Yo‘ldosh Parda o‘rtaga tashlagandi. Buning uchun unga ham rahmat aytishimiz joiz

Keyingi paytlarda muslima xotin-qizlar muammosiga bag‘ishlangan kitoblar yomg‘irdan keyin chiqqan qizg‘aldoqdek ko‘payib ketdi. Buning asli sababi ayollarga diniy va dunyoviy jihatdan ta‘lim tarbiya berishdan iborat. Aniqroq qilib aytganda , Islom dini haqida tushuncha berish ,Allohga marhamat keltirish , Allohni borligiga ishonish , uning payg‘ambarlariga ishonish , uning aytgan amallarini bajarish buning

yorqin misolidir. Asarning asosiy maqsadi ham shulardan iborat. Asarda ushbu tushunchalar haqida bir necha misollar keltirib o'tilgan. Islom dini boshdan- oyoq xotin -qizlarga qarshi din , deydiganlar albatta ,qattiq yanglishadilar. Negaki, bunga misol Muxammad alayhissalomning hozirgi kunlargacha tildan -tilga ko'chib yurgan ushbu so'zlarga e'tibor berish lozim.

„Xotin -qizlar , xush buylar mexri, Bu dunyoda dilga bo'ldi jo .

Ko'nglim xushi, ko'zim qorasi,

Dil yupanchi namozda ammo"

Zero ayollar xush bo'ylar taratuvchilardir: ya'ni ayollarning mehri ,muruvvati butun dunyoga jo bo'lar , ko'nglimning xushi , ko'zimning qorasi, ko'rki ayollar ammo, dilning yupanchi bu namozda ekanligini aytmoqda. Shubhasiz, yuqoridagi misradan ko'rinib turibdiki, ayollarning qadri - qimmati haqida ta'riflab ularni ko'zini qarosi ekanligini aytmoqda. Shuni unutmaslik kerakki, butun dunyo yupanchi namoz ekanligini. Buni o'qigan har bitta muslima ayol tushunib oladiki , har bir musulmon o'zini yaratgan robbisi uchun doimo ibodatta bo'lishi , unga bo'ysinish va namoz o'qishi kerakligini anglab yetadi . Tabir joizki, tushunishi uncha qiyin bo'limgan ushbu asar Shimmelning mohirona qobilyati va asarni mukammal tarzda yozganligidan dalolat beradi. Ushbu asarni o'qigan ayollar nafaqat, ayollar balki , yosh qizlar, hattoki kelinchaklar uchun ham juda qo'l keladi. Kelinchaklar bu kitobni o'qib , Deoband diniy maktabining Olta qattiqo'l axloq va odob ko'rsatmalari bilan tanishadilar va turli hayoti sharoitlarda o'zlarini qanday tutishlari lozimligini o'rganib oladilar. Bu kitobni varaqlagan har bir kitobxon Ota -onaga qanday munosabatda bo'lishni, ularga hurmatda bo'lish kerak ekanligini tushunib yetadi . Islomda ta'kidlab o'tilgan ayrim yo'l - yoriqlarni va qoidalarni ham ko'rib o'tish mumkin . Islomda bo'limgan g'ayrioddiy odatlardan xalos bo'lish yo'llari , chinakam taqvodor inson bo'lish uchun qanday amallarni qilish va qanday amallarni qilmaslik kerakligini (amri maruf va naxiy munkar) ni o'rganib oladilar . Chunki ular yorqin misollarda qisqa va lo'nda qilib tushuntirib berilgan.

Ma'lumki Payg'ambar Alayhissalomning rafiqalaridan kamida bittasi o'qish va yozishdan xabardor bo'lgan. Ammo xali hanuz bu masala bo'yicha yoritilayotgan baxslar tugagani yuq. Xalq og'zaki ijodi namunasi bo'lmish ko'pgina asarlarda xotinlarning makr - xiylalari to'g'risida sanoqsiz rivoyatlar berilgan. Biroq bundan,, musulmonlar Shu sababdan ham xotinlariga ko'z -quloq bo'lib yurishrkan-da" , degan xulosa kelib chiqmaydi, chunki bunaqa holatlar G'arbda ham ko'p tarqalgan. Din olimalarining „Ayollar jannatda Allox taoloning jon baxsh etuvchi jamolini ko'rishga muyassar bo'ladilarmi yoki yo'qmi?" deb yuritgan baxslariga jiddiyroq e'tibor qaratish kerak. Chunki bu masalada hali hech kim biror jo'yali gap aytgani yo'q. Rivotda keltirilgan ushbu gaplar ham bejiiz emas. Payg'ambar Alayhissalom „ Do'zax axlining ko'pchiligi ayollar ekanligini ko'rdim " , degan ekanlar , shunga asoslanadigan bo'lsak ayollarning jannatga kirish- kirmasligi nomalumligicha qoladi. Bundan ko'rindaniki , inson bu dunyoga keldimi faqat u dunyoning o'tkinchi xoyi - havaslariga ishonib yashamasdan keyingi kunini ham o'ylashi kerak. Insonning bu yorug' dunyodagi qilayotgan ammalari, savoblari, gunoxlari yig'ilib uning so'nggi manziliga borganida jannat yoki do'zax ekanligi shulardan bilinar ekan . Shunday ekan har bir mo'min musulmonning vazifasi yaratgan robbisiga itoat etishi va unga ibodat qilishi lozim ekan. So'z o'rnida aytib o'tish kerakki , asarda keltirilgan yana rivoyat juda ta'sirli. Aytishlaricha, keksa bir momo

Payg'ambar alayhissalomdan: „Bizga o'xshagan yuzlarini ajin bosgan , ko'zlari yiringlashib , munkayib qolgan kampirlar ham jannatga kiradilarmi ? "-deb so'raganda , ul zot jiddiy ravishda: „Yuq , sizga o'xshagan momolar jannatga kuyilmaydi", deb javob bergen , so'ngra kampirning ruxi tushib ketganini ko'rgach, jilmayib qo'shib qo'ygan: „ Sizga o'xhab murrib qolgan momolarning barchasi avval o'n sakkizga kirgan bokira qizlarga aylantiriladi , so'ngra jannatga kiritiladi " - degan ekanlar. Islom jamiyatida eng katta hurmatga loyiq zot turmush qurgan ayol , aniqrog'i ona hisoblanadi.Bu hol Payg'ambar alayhissalomning „ Jannat onalarning oyog'i ostidadir " , degan hadisi shariflarda ham yaqqon berib o'tilgan. Bu rivoyatlarda ko'rib turiliptiki, Allohning marhamati keng ekanligini, uning qanday adolatli zot

ekanligini ko'rishimiz mumkin. Aloh hech qachon , hech qaysi bandasiga nohaqlik qilmaydi , u judaadolatli zotdir. Agar bu yorug' olamda haqiqatni ko'rmayotgan bo'lsangiz, u dunyoda albatta ko'rasiz. Allohga ishonsangiz kifoya. Kitobda aytilgan ushbu misralarga e'tibor bermaslikning iloji yo'q.

Ayollarga zulm o'tkazma , bo'lma toshbag'ir ,

Ular qiyshiqliq qovushmadan yaralgan axir.

Nemsin ,Allox yaratipdi ularni shundoq,

Sini qolar to'g'rilashga uringanining choq.

Bu yerda Odam Ato va Momo Havo nazarda tutilmoqda. ular bir - birlari uchun yaratilgani ularni Aloh shunday yaratgani haqida aytib o'tilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Annemarie Shimmel. Islomning mistik mezonlari. Kyoln, 1987.
2. Annemarie Shimmel. Xuddi parda orqasidak. Islom mistik she'riyati. N`yu York, 1982.
3. Annemarie Shimmel. Alidan Zahrogacha. Islomiy ismlar va musulmoncha ism berish. Myunxen, 1993.
4. Stovaer Barbara Freyer. Qur'onda ayollar siymosi. An'analar va ularning tavsifi. N`yu-York, 1994.
5. Al-Hakim at-Termiziy. Hotam al-avliyo. Bayrut, 1965.
6. <https://kh-davron.uz/kutubxona/islomiy-adabiyot/tasavvuf/annemariye-shimmel-jonon-mening-jonimda-04.html>
7. <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/yangi-kitoblar/annemarie-shimmel-jonon-mening-jonimda>